



МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ YOSHADAGI BOLALARDA MILLIY G`URUR VA IFTIXOR TUYG`ULARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG`ZAKI IJODI NAMUNALARINING O`RNI

Rajabova M.T.

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta`lim nazariyasi kaedrasi o`qituvchisi

Tayanch so`zlar: xalq og`zaki ijodi, maqol, xalq qo`shiq-lari, doston, milliy qadriyat, "Alpomish" dostoni, ma`naviyat, an`ana, ijodkorlik.

Ключевые слова: фольклор, пословица, народные песни, эпос, национальная ценность, эпос «Алпомиш», духовность, традиция, творчество.

Key words: folk oral creativity, proverb, folk songs, epic, national value, "Alpomish" epic, spirituality, tradition, creativity.

Kirish. Har bir xalqning milliy qadriyatlari uning o`zligi timsoli hisoblanadi. Ajdodlardan meros buyuk ma`naviy boylikni har qanday og`ir sharoitda asrab qola olgan xalq va millatgina milliy o`zligi, tarixiy qiyofasini ham saqlab qolishga erishadi. Bu xazina boyliklarini yosh avlodning ma`nan kamolot topishi yo`lida kelajak avlod ongiga singdirish pedagog xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta`kidlaganidek: "...Tengsiz ma`naviy boyligimiz bo`lmish mumtoz san`atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg`or fikrli olimlar va san`atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir" [1.1] Haqiqatdan ham xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so`z san`ati hamisha tayanch nuqta bo`lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir. Ma`naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o`rnini, xalqqa, vatanga, atrof-dagi odamlarga bo`lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma`naviy qashshoq kimsa hayotda ro`y berayotgan voqealarga loqayd bo`ladi. Loqaydlik esa tuzatib



bo'lmas oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Modomiki, ma'naviyat insonning qon-qoniga, suyak-suyagiga singadigan tuyg'ular, qarash va ko'nikmalar majmuyi ekan. Ma'naviyat inson ruhiyatida, qalbi va ongida shakllanib ulg'ayadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'p yillik olib borgan ilmiy izlanishlar natijalari kichik yoshdagi bolalar ongiga milliy – ma'naviy qadriyatlarni singdirishda informatsion kommunikativ texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy samaralarini berishligini ko'rsatdi. CHunki bu texnologiya «Milliy model» ni ro'yobga chiqarish, ma'naviy yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida muxim axamiyat kasb etdi. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiyada ijobiy sifat o'zgarishlarga erishish va yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish borasidagi ilmiy texnikaviy va o'quv-axborotli muxitini yaratish lozimligini ko'rsatadi. SHu boisdan hozirgi paytda milliy istiqloq g'oyasini, jumladan milliy - ma'naviy qadriyatlarni o'rganish va targ'ibot qilishni ilmiy - nazariy tadqiq etish va shu asosda amaliyot uchun zarur bo'lgan uslubiy qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish nixoyatda zarur. Bu vazifani bajarish o'z navbatida Respublikamizdagi barcha olimu mutaxassislarining ijodlarini ushbu yo'nalishga birlashtirishni va hamkorlikda ishlashni talab etadi. Ma'naviy qadriyatlar ajdodlar to'plagan tajribalar, ibratlar, axloqiy qarashlar tarzida avlodlarga o'tib boradi. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. Bular sirasiga onalar allasi ham, oiladagi munosabatlar ham, buyuk shaxslar qoldirgan nodir kitoblar, madaniy yodgorliklar shaklidagi ma'naviy-ma'rifiy manbalar ham, bugungi ijodkorlar yaratayotgan asarlar, olimlarning kashfiyotlari ham kiradi.

Adabiyotlar tahlili: Ma'lumki, qadriyatlarni yaratuvchi ham, avloddan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o'zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o'rganiladi, bunda ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, badiiy estetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma'naviy ruhiy qadriyatlar. Xalq pedagogikasi umuman olganda ilmiy pedagogika bilan bog'liqdir. Bir qator o'zbek olimlari: M. Jo'raev, S. Ochilov, O. Safarov, U. Mahkamov kabi olimlar xalq og'zaki ijodidan foydalanish orqali yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratmoqdalar. Ma'lum ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodi to'g'ridan-to'g'ri yoshlar tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Bu borada



yoshlarni milliyligimiz bilan tarbiyalab borish, Yevropa madaniyatini keng tarqalib ketishini oldini olish mavzularida J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda o'zbek folklorshunosligi tamomila bir yangi folklorshunoslikdir. Ushbu sohada faol ijod qilib kelayotgan T.Mirzayev, O.Safarov, O.Madayev, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, J. Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarning izlanishlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. [3.237]

Tahlil va natija: Maktabgacha yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga xurmat bilan munosabatda bo'lish, bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari etib belgilangan. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'naviy –axloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berishimizda ularga milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni ongiga singdirishimizda xalq og'zaki ijodining mazmun mohiyatini chuqur anglashga o'rgatishimiz, mashg'ulotlar jarayonida ulardan unumli foydalanishimiz zaruriyatini taqazo etadi. Ko'pchiligimiz xalqimizning qadimiy ertaklarini, afsonalarini, dostonlarini miriqib eshitamiz, o'qiymiz. Ularda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlar jasorati qalbimizni to'lqinlantiradi, bilimimizni oshiradi, ijodiy tasavvurlarimizni kengaytiradi. Qolaversa, ularda xalqimizning ozodlik va erkinlikka, farovon va tinch hayot kechirishga bo'lgan azaliy orzu-intilishlari mujassamlashgan. Xalq og'zaki ijodi degan nom ostida bizgacha bezavol yetib kelgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz orasida «Alpomish» dostoni alohida ajralib turadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu asarga quyidagicha yuksak baho beradi: «Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan». [2.176] Darhaqiqat, dostonning bosh qahramonlari Alpomish va Barchinoyning boshiga ne-ne ko'rgiliklar tushmaydi. Bu ikki yosh yurtini, hokimiyatni yovlardan tozalash, turli fitnalar, aldovlarga uchmasdan maqsad sari intilish, elga jabr qilmoqchi



bo'lganlarga munosib zarba berish, nihoyat, o'z eliga, ona yurtiga munosib egalik qilishdek mas'uliyatli vazifalarni sharaf bilan bajarishadi. Bu kurashlar davomida ularning tug'ilib o'sgan yurtga mehri, do'stlikka sadoqati, qon-qardoshlariga bemisl shafqati, pok muhabbati sinovdan o'tadi, toblanadi. Yurtboshimiz xalqimizning qadimiy va shonli tarixini tunganmas bir doston deb, «Alpomish»ni esa shu dostonning shoh bayti deb baholashining zamirida ana shu haqiqat turibdi. Ya'ni, xalqimizga xos bo'lgan, uni asrlar sinovidan omon olib chiqqan barcha oliyjanob fazilatlar ayni dostonda mangu qo'shiqdek tarannum etilgan. Shuningdek, dostonda inson qadrini asrash, ota-ona hurmatini bajo keltirish, har bir farzandning Alpomishdek mard, jasur, so'ziga sodiq bo'lib o'sishini ta'minlash kabi hayotiy muammolar dostonda o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pandnasihatlar, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, xalqimizning urf-odatlar, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodining yorqin namunalaridan biriga misol qilib maqollarni keltirsak bo'ladi. Maqol – og'zaki ijodning eng faol janri. [4. 233] Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan. Xalqimiz yaratgan maqollarni tashkil etuvchi so'zlar xususida esa, umuman, til lol qoladi. O'zingiz tasavvur qiling, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-turk” asarida 300 ga yaqin maqollar keltirilgan bo'lib, ularning ayrimlari shu kungacha millatimiz nutqida aynan takrorlanadi. Demak, ming yil avval bobolarimiz, momolarimiz bir maqolni qanday yo'sinda talaffuz qilgan va qanday maqsadda aytgan bo'lsa, bugungi kunda biz ham shu xolatda qo'llayabmiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mashg'ulot mavzusi va bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga qo'yilgan muhim vazifalardanidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda



qirralari, urf-odatlarimiz, an'ana va marosimlarimiz haqida yanada to'liq ma'lumotlardan voqif bo'lamiz.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki bugungi kunda qudratli qurol bo'lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda, ongini o'stirishda, dunyoqarashini shakllantirishda, nutqni boyitishda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshirishda bolalar adabiyoti va folklor na'munaarining o'рни beqiyos. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayanib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanishning pedagogik mazmunini nutq o'stirish, badiiy adabiyot mashg'ulotlarida ilk yoshdan boshlab buyuk ma'rifatparvar allomalarimizning o'chmas xazinasi namunalaridan tanishtirib borish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi // Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil, 7-aprel. – №68(72-98) son. –B.1.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil.
3. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O'zbek folklori.-T.:2020 yil
4. Omonulla Madayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. _T.:<<Mumtoz so'z>> nashriyoti 2010-yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola yosh avlodni ilm-fan, texnika taraqqiyoti talablari darajasida, ya'ni yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazish, bilan bir qatorda, ularni milliy g'urur va milliy mafkura ruhida tarbiyalash eng muhim hamda dolzarb vazifalarda biri ekanligi hamda xalq og'zaki ijodiyoti, musiqa san'ati, milliy o'yinlari ta'lim va tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qilishi haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья является наиболее важной и актуальной для воспитания молодого поколения до уровня требований развития науки и техники, т.е. для воспитания зрелой личности с новым мышлением, творческим мышлением и способностями, и воспитания ее в духе были выражены идеи национальной гордости и национальной идеологии, что это одна из задач и что народное искусство, музыкальное искусство, национальные игры как компонент воспитания и обучения служат развитию молодежи во всех аспектах.

SUMMARY

In this article, it is most important to educate the young generation in the spirit of national pride and national ideology, in addition to raising the young generation to the level of the requirements of science and technology development, a mature person with new thinking, creative thinking and ability. and the opinions that it is one of the urgent tasks and that folk art, musical art, and national games serve to improve young people in all aspects as a component of education and upbringing have been expressed.